

# TAFAKKUR JARAYONIDA METAFORANING ROLI

*Abdumo'min Mamtaliyev*

*ADU tayanch doktoranti*

Metafora haqidagi nazariy tushunchalar ildizi ilm-fan doirasidagi aksar fundamental qarashlar singari qadim yunon faylasuflariga borib taqaladi. Aristotelning "Poetika" va "Ritorika" asarlarida metafora haqida umumiyl mulohazalar berilgan bo`lib, u aksariyat metafora va o`xshatishni bir-biriga yaqin deb tushunadi: *O`xshatish, metafora bo`lib, faqat undan joylashtirish usuli bilan farqlanadi, u (o`xshatish – ta'kid bizniki. M.A.) uzunroq bo`lgani uchun jozibasi ozdir* [1:156]. Aristotel, bu o`rinda uzunroq deb, o`xshatishni yuzaga keltiruvchi vositalar mayjudligini nazarda tutadi.

Darhaqiqat, o`xshatish o`z mohiyatiga ko`ra ikki bosqichga ega hodisadir. Bunda birinchi bosqich dunyoni bilish usuli, boshqacha aytganda, aqliy operatsiya bo`lib, bunda "A" predmet yoki hodisa "V" bilan o`xshashligini aniqlash maqsadida qiyoslanadi. Keng ma`noda, maqsad o`xshashlikni aniqlash emas, umuman "A"ning noma'lum xususiyatlariga "V"ga qiyoslash orqali oydinlik kiritish bo`lishi ham mumkin. Ushbu bosqichning natijasi "A" va "V" o`rtasidagi o`xshash tomon – "S" xususiyatning aniqlanishidir. Agar "S" aniqlansa, keyingi – ikkinchi bosqich amalga oshadi. Ya`ni endi ikki qiyoslanayotgan obyekt bilan birga uchinchi uzvga ham katta e'tibor qaratiladi, o`xshatish shakllanadi. Shu bois o`xshatishda uch asos e'tiborga olinadi [2:6]. Demak, o`xshatishlar mantiqiy o`xshatish modeliga muvofiq keluvchi ko`p komponentli qurilmadir [3:32].

Yana bir o`rinda Aristotel metafora va o`xshatishni bir-biriga yaqin tushuncha sifatida baholaydi: *O`xshatish ham metaforadir; farqi juda oz. Sho'ir Axilles haqida aytganida: U sherdek dushmanga otildi - bu o`xshatish; u haqida "sher sakrab chiqdi" deganida – bu metafora* [1:145]. Aristotelning asarlarida metafora haqida nazariy qaydlar ko`p o`rinda uchrasha-da, ularda metaforani lisoniy nuqtai nazardan emas, balki ritorik jihatdan tadqiq etilib, badiiy tasvirdagi imkoniyatiga e'tibor berilgan. Shunday bo`lsa-da, ushbu mulohazalar dastlabki umumiyl qarashlar aks etgani bilan ahamiyatlvi deyarli XX asrga qadar metaforaga nisbatan mana shunday yondashuv uchraydi.

Metaforani aynan fan nuqtai nazaridan o`rganish, asosan, XX asrdan boshlangan bo`lib, bu davrda olimlarning metaforaga nisbatan ikki xil yondashuvini ko`rish mumkin.

T.Gobbs metafora orqali mulohaza yuritish, son-sanoqsiz bema`niliklar orasida sargardon bo`lish bilan barobarligini ta`kidlaydi. Gobbsga ko`ra, nutq fikrlarni ifodalash va bilimlarni yetkazishga xizmat qiladi. Shuning uchun nutqda so`zma-so`z (bevosita) ifodalash qulaydir [4:11]. J.Lokkga esa insonning metaforaga moyilligi g`ayritabiiy tuyuladi, so`zlarning majoziy ma`noda ishlatalishini qoralaydi [4:11].

Aksincha, Fridrix Nitsshe metaforani tushunchadan ajratib, uning estetik jihatiga e'tibor qaratgan. Uningcha, fikrlash jarayonining o`zi ham metaforadan tashkil topadi (*Nitsshening ushbu fikri keyingi, yangicha tadqiqotlar uchun asos bo`ldi*). Metaforani insondon ayrı holda tasavvur etib bo`lmaydi: subyekt va obyekt o`rtasida faqat metafora bilan ifodalangan estetik munosabat bo`ladi. Shuning uchun odamning metafora yaratishga bo`lgan ishtiyoqini yo`q qilib bo`lmaydi. Uni amalga oshirish uchun ular mif va san`atda yangi imkoniyatlar izlaydi va topadi [4:12].

Ramziy shakllarga e'tibor bergen Kassirer metaforani dunyo haqidagi dastlabki mifologik tushunchalar bilan bog`laydi. Kassirerga ko`ra, til va mif boshidanoq bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lib, ular asta-sekin mustaqil elementlar sifatida ajralib chiqqan. Kassirer metaforani bir tasavvur nomini unga mutanosib qandaydir belgiga ega bo`lgan yoki u bilan qandaydir bilvosita

“analogiya”larni nazarda tutuvchi boshqa soha – boshqa tasavvurga ko`chirish” deb tushunadi [6:15]. Kassirerda metafora, metonimiya, sinekdoxa birlashib ketgan bo`lsa, Lakoff va Jonson metafora, sinekdoxa, metonimiya boshqa-boshqa tushunchalar ekanligini izohlab berdi: metafora va metonimiya o`rtasida umumiy o`xhashliklar bo`lsa-da, metafora va metonimiya ma`lumot almashishning turli usuli. Metafora, birinchi navbatda, bir narsani boshqa nom (atama) bilan tushuntirish yo`li bo`lib, uning asosiy vazifasi - idrok qilish. Metonimiyada, asosan, havola (ishora) vazifasi bor bo`lib, u bitta asosni boshqasiga almashtirishga imkoniyat beradi [5:36-37]. Ko`rinadiki, metafora va metonimiya ma`no ko`chishi bo`lsa-da, metonimiyada ko`chim aloqadorlik asosida hosil bo`ladi.

Keyingi davrda yaratilgan tadqiqotlar orasida Lakoff va Jonsonning metaforaning til va kundalik hayotdagi o`rni haqidagi fikrlari ahamiyatlidir. Unga ko`ra, metafora nafaqat tilda, balki fikrlash va harakatda ham o`zini namoyon qiladi: Biz o`ylaydigan va harakat qiladigan kundalik konseptual tizimimiz mohiyatiga ko`ra metaforikdir. Tafakkurimizni boshqaradigan tushunchalar hech qachon aql-idrok bilan chegaralanmaydi [4:389]. Jonson va Lakoffning fikricha, metafora bir turdag'i narsani boshqa nuqtai nazardan anglash va boshdan kechirishdir [5:5]. Olimlarning tadqiqotlaridan “inson tafakkur jarayonining o`zi metafora”, degan xulosaga kelish mumkin va bugungi kundagi metaforaga kognitiv yondashuv shu nuqtai nazarga asoslanadi.

Roland Bleykerning metafora haqidagi fikrlari ham shunga o`xshash: “Til bizga nafaqat muloqot qilish, balki, ijtimoiy hodisalar haqidagi fikrlarimizni shakllantirish uchun ham kerak bo`lganligi bois inson muqarrar ravishda metaforalar orqali o`ylaydi, yashaydi va tanqid qiladi” [7:10].

Qobuljonova G. “Metaforaning sistemaviy lingvistik tahlili” nomzodlik dissertatsiyasida metafora komponent tahlil qilingan bo`lib, uning o`xshatish va boshqa yondosh tushunchalardan asosiy farqi izohlab berilgan. Unga ko`ra, o`xshatish va metafora bir-biriga yaqin kelsa-da, ular shaklan, mazmunan, uslub, yo`nalish jihatdan farq qiladi [6:57].

Metaforaning kognitiv talqinining mohiyati metaforizatsiya jarayonining zamirida bilimlarni qayta ishslash jarayoni yotishini tan olishdan iborat. Bunday jarayon insonning, aniqrog`i, inson ongingin olam bilan munosabatlarini umumlashtiruvchi kognitiv strukturalar – sxema, freym va ssenariylar hosil bo`lish jarayoni tushuniladi. Ushbu mental modellar tilda aks etadi, ya`ni inson tajribasi endi til vositasida voqelanadi. V.N. Teliya, hatto, so`z yasash modeli qanday vazifani bajarsa, metafora ham shunday vazifani bajarishini, faqat uni yashirishi va nostandard amalga oshirishini ko`rsatadi [8:51]. Haqiqatan, inson predmetlar(keng ma`noda)ni ega bo`lgan xususiyatlariga oydinlik kiritish yoki noma`lum predmetlarni aqliy o`zlashtirish maqsadida qiyoslash aqliy operatsiyasiga tayanadi. Albatta, inson tafakkuri biror predmetlarni qiyoslashga o`rin beribdimi, ularda qandaydir o`xhashlik borligini tan olmoq kerak. Metaforizatsiya natijasi bo`lgan reifikatsiya ((ing. *reification* – predmetlantirish) biror-bir ideal hodisani moddiy mavjudlik sifatida tasavvur etish) o`ziga xos epistemiologik vazifa bajara olishi xususida F.Usmonov shunday deydi: “Masalan, xursand insonning ko`ngli to`lishi, yoqimli hislarga limmo-lim bo`lishi, xafa bo`lgan insonning ko`ngli dog` bo`lishi, darz ketishi, sinishi, qalbi chilparchin bo`lishi, ko`ngliga hech narsa sig`masligi haqida gapirish mumkin. Ko`rinadiki, kognitiv darajada hissiyotlar istiqomatgohi – ko`ngil bu – **idish**, uning tubi bor, u toza, tiniq va hatto kir bo`lishi ham mumkin. Eng muhim, u nozik, uni avaylash kerak bo`ladi... Keltirilgan kichik mulohaza kognitiv metaforalar ishslash mexanizmining eng sodda talqinidir” [3:26].

Shunday qilib, insonning olamni bilish, o`rganish jarayonida konseptlar hosil bo`la boradi va ular tilda aks etadi. Natijada til olam haqida tasavvur bera oladi. Demak, o`z mohiyatiga ko`ra nolisoniy bo`lgan kognitiv jarayon inson faoliyatini uchun ham, til birliklari ma`nosining hosil bo`lishi

yoki nominatsiya uchun, umuman, lison uchun ham asos hisoblanadi. So‘z nominatsiya xususida ketgan ekan, yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, so‘z ma’nosи insonning olam to‘g‘risidagi, sotsiomadaniy stereotiplar to‘g‘risidagi umumiylasavvurlari fonida mavjuddir. Demak, leksik ma’no, qat’iy emas, so‘z semantikasi o‘zgarishga uchrashi, unda semantik siljish yoki ko‘chish yuzaga kelishi mumkin. Bunday ko‘chish usullaridan biri metaforadir.

### **Adabiyotlar:**

1. Aristotle. Rhetoric. Translated by W. Rhys Roberts. <https://www.bocc.ubi.pt/pag/Aristotle-rhetoric.pdf>
2. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 6.
3. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқики: Филол. фан. б. фалс. док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 26.
4. Teoriya metaforы. – М., 1990
5. George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors we live by. The University of Chicago press. Chicago, 1980
6. Qobuljonova Gulbahor. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Т.,2000
7. Michael P.Marks. Metaphors in international relations theory. Palgrave and Macmillan, 2011
8. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М: Наука, 1986. – С. 51.
9. <http://library.zyonet.uz/static/lib/reader-pdf/web/viewer.html?file=http://library.zyonet.uz/uploads/books/251467/5e1c61965017c.pdf>